



ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari

Son 7 Jild 4

2024

SCIENCEPROBLEMS.UZ

**ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ
ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ**

№ 7 (4) - 2024

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

ТОШКЕНТ-2024

БОШ МУҲАРРИР:

Исанова Феруза Тулқиновна

ТАҲРИР ҲАЙЪАТИ:

07.00.00-ТАРИХ ФАНЛАРИ:

Юлдашев Анвар Эргашевич – тарих фанлари доктори, сиёсий фанлар номзоди, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Мавланов Укташ Махмасабирович – тарих фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Хазраткулов Аброр – тарих фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети.

Турсунов Равшан Нормуратович – тарих фанлари доктори, Ўзбекистон Миллӣ Университети;

Холикулов Ахмаджон Боймаҳамматовиҷ – тарих фанлари доктори, Ўзбекистон Миллӣ Университети;

Габриэльян Софья Ивановна – тарих фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон Миллӣ Университети.

Сайдов Сарвар Атабулло ўғли – катта илмий ҳодим, Имом Термизий халқаро илмий-тадқиқот маркази, илмий тадқиқотлар бўлими.

08.00.00-ИҚТИСОДИЁТ ФАНЛАРИ:

Карлибаева Раја Хожабаевна – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Насирходжаева Дилафруз Сабитхановна – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Остонокулов Азамат Абдукаримович – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент молия институти;

Арабов Нурали Уралович – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Худойқулов Садирдин Каримович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Азизов Шерзод Ўқтамович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Божхона институти;

Хожаев Азизхон Саидалоҳоновиҷ – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Фарғона политехника институти

Холов Актам Ҳатамович – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Шадиева Дилдора Ҳамидовна – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент в.б, Тошкент молия институти;

Шакаров Кулмат Аширович – иқтисодиёт фанлари номзоди, доцент, Тошкент ахборот технологиялари университети

09.00.00-ФАЛСАФА ФАНЛАРИ:

Ҳакимов Назар Ҳакимович – фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Яхшиликов Жўрабой – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Ғайбуллаев Отабек Мухаммадиевич – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат чет тиллар институти;

Сайдова Камола Усканбаевна – фалсафа фанлари доктори, "Tashkent International University of Education" халқаро университети;

Хошимхонов Мўмин – фалсафа фанлари доктори, доцент, Жиззах педагогика институти;

Ўроқова Ойсулув Жамолиддиновна – фалсафа фанлари доктори, доцент, Андижон давлат тибиёт институти, Ижтимоий-гуманитар фанлар кафедраси мудири;

Носирходжаева Гулнора Абдукаҳаровна – фалсафа фанлари номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Турдиев Бехруз Собирович – фалсафа фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Бухоро давлат университети.

10.00.00-ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Ахмедов Ойбек Сапорбаевич – филология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Кўчимов Шухрат Норқизилович – филология фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳасанов Шавкат Аҳадович – филология фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Бахронова Дилрабо Келдиёрова – филология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Мирсанов Ғайбулло Қулмурадович – филология фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат чет тиллар институти;

Салахутдинова Мушарраф Исамутдиновна – филология фанлари номзоди, доцент, Самарқанд давлат университети;

Кучкаров Рахман Урманович – филология фанлари номзоди, доцент в/б, Тошкент давлат юридик университети;

Юнусов Мансур Абдуллаевич – филология фанлари номзоди, Ўзбекистон Республикаси Президенти хузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Саидов Улугбек Арипович – филология фанлари номзоди, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти хузуридаги Давлат бошқаруви академияси.

12.00.00-ЮРИДИК ФАНЛАР:

Ахмедшаева Мавлюда Ахатовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Мухитдинова Фирюза Абдурашидовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Эсанова Замира Нормуротовна – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикасида хизмат кўрсатган юрист, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳамроқулов Баҳодир Мамашарифович – юридик фанлар доктори, профессор в.б., Жаҳон иқтисодиёти ва дипломатия университети;

Зулфиқоров Шерзод Хуррамович – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Жамоат хавфсизлиги университети;

Хайитов Хушвақт Сапарбаевич – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти хузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Асадов Шавкат Файбуллаевич – юридик фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти хузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Утемуратов Махмут Ажимуратович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Сайдуллаев Шахзод Алиханович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳакимов Комил Бахтиярович – юридик фанлар доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Юсупов Сардорбек Баходирович – юридик фанлар доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Амирор Зафар Актамович – юридик фанлар бўйича фалсафа доктори (PhD), Ўзбекистон Республикаси Судъялар олий кенгаши хузуридаги Судъялар олий мактаби;

Жўраев Шерзод Юлдашевич – юридик фанлар номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Бабаджанов Атабек Давронбекович – юридик фанлар номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Раҳматов Элёр Жумабоевич - юридик фанлар номзоди, Тошкент давлат юридик университети;

13.00.00-ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ:

Хашимова Дильдархон Уринбоевна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Ибрагимова Гулнора Хавазматовна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Закирова Феруза Махмудовна – педагогика фанлари доктори, Тошкент ахборот технологиялари университети хузуридаги педагогик кадрларни қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш тармоқ маркази;

Каюмова Насиба Ашуревна – педагогика фанлари доктори, профессор, Қарши давлат университети;

Тайланова Шохида Зайневна - педагогика фанлари доктори, доцент;

Жуманиёзова Мұхәйё Тожиевна – педагогика фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Ибрахимов Санжар Урунбаевич – педагогика фанлари доктори, Иқтисодиёт ва педагогика университети;

Жавлиева Шахноза Баходировна – педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), Самарқанд давлат университети;

Бобомуротова Латофат Элмуродовна - педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), Самарқанд давлат университети.

19.00.00-ПСИХОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Каримова Васила Маманосировна – психология фанлари доктори, профессор, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Хайитов Ойбек Эшбоевич – Жисмоний тарбия ва спорт бўйича мутахассисларни қайта тайёрлаш ва малакасини ошириш институти, психология фанлари доктори, профессор

Умарова Навбаҳор Шокировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети, Амалий психологияси кафедраси мудири;

Атабаева Наргис Батировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Шамшетова Анжим Карамаддиновна – психология фанлари доктори, доцент,

Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;
Қодиров Обид Сафарович – психология фанлари доктори (PhD), Самарканд вилоят ИИБ Тиббиёт бўлими психологик хизмат бошлиғи.

22.00.00-СОЦИОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Латипова Нодира Мухтаржановна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири;
Сеитов Азамат Пўлатович – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети;

Содиқова Шоҳида Мархабоевна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон халқаро ислом академияси.

23.00.00-СИЁСИЙ ФАНЛАР

Назаров Насриддин Атакулович –сиёсий фанлар доктори, фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент архитектура қурилиш институти;
Бўтаев Усмонжон Хайруллаевич –сиёсий фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири.

ОАК Рўйхати

Мазкур журнал Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Олий аттестация комиссияси Раёсатининг 2022 йил 30 ноябрдаги 327/5-сон қарори билан тарих, иқтисодиёт, фалсафа, филология, юридик ва педагогика фанлари бўйича илмий даражалар бўйича диссертациялар асосий натижаларини чоп этиш тавсия этилган илмий нашрлар рўйхатига киритилган.

Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари” электрон журнали 2020 йил 6 август куни 1368-сонли гувоҳнома билан давлат рўйхатига олинган.

Муассис: “SCIENCEPROBLEMS TEAM” масъулияти чекланган жамияти

Таҳририят манзили:

100070. Тошкент шаҳри, Яккасарой тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-уй. Электрон манзил:
scienceproblems.uz@gmail.com

Боғланиш учун телефонлар:
(99) 602-09-84 (telegram).

07.00.00 – TARIX FANLARI

Abduxamidov Islombok

O'ZBEKISTON AHOLISINING ROSSIYA FEDERATSIYASIDA MEHNAT

MUHOJIRLIGI TARIXI 10-18

Фарманова Гульнара Комилевна

ПОДНЯТИЕ МЕТОДИКИ АРХЕОЛОГИЧЕСКИХ ИССЛЕДОВАНИЙ НА ОБЩЕМИРОВОЙ

УРОВЕНЬ В СОВРЕМЕННЫХ УСЛОВИЯХ 19-24

Индиаминова Шоира Амриддиновна

РАЗВИТИЕ КУЛЬТУРЫ И ИСКУССТВА В САМАРКАНДСКОМ СОГДЕ В ЭПОХУ РАННЕГО

СРЕДНЕВЕКОВЬЯ 25-29

Mirzakhamdamova Dildora Zafarovna

XOTIN-QIZLAR BANDLIGINI TA'MINLASHDA FARG'ONA VILOYATIDA

IPAKCHILK ORQALI KASANACHILIK VA UY MEHNATINI RIVOJLANTIRISH 30-35

Ismoilova Parvina

TURKISTON MINTAQASIDAGI INSTITUTSIONAL O'ZGARISHLAR: ROSSIYA KAPITALI UCHUN

KANALLARNING SHAKLLANISHI (19-ASR OXIRI - 20-ASR BOSHLARI) 36-41

Jomurodov Lazizbek Islomovich

O'ZBEKISTONDA TERI-TANOSIL KASALLIKLARIGA QARSHI KURASH

JARAYONI 42-46

08.00.00 – IQTISODIYOT FANLARI

Назарова Раъно Рустамовна, Нигматуллаева Гульчехра Нуруллаевна

ОСНОВНЫЕ ФАКТОРЫ, КРИТЕРИИ И ПОКАЗАТЕЛИ, ОБЕСПЕЧИВАЮЩИЕ УСТОЙЧИВОЕ

РАЗВИТИЕ В СФЕРЕ ЭНЕРГЕТИЧЕСКОЙ ОТРАСЛИ 47-54

Yegamberdiyeva Xurshidaxon Alisherovna

VAGONLARDAN FOYDALANISHNING SIFAT KO'RSATKICHINI OSHIRISHNI

TADQIQ QILISH 55-61

Mamadaliyev Ulug'bek

JAHON TURIZMIDA TUROPERATORLIK FAOLIYATINING RIVOJLANISH HOLATI 62-69

Jalilov Arslon Xoshimovich

TEMIR YO'L TRANSPORTINING INNOVASION MUHITDAGI RAQOBATDOSHLIK DARAJASINI

BAHOLASH 70-75

Kamchibekov Farxod Olimjonovich

O'ZBEKISTON HUDUDLARINING INVESTITSION JOZIBADORLIGINI OSHIRISHDA MAXSUS

IQTISODIY HUDUDLAR VA KICHIK SANOAT ZONALARINING ROLI 76-82

09.00.00 – FALSAFA FANLARI

Djurayev Lukmon Narzullaevich

ZAMONAVIY O'ZBEKISTON JAMIyatida YOSHLAR IQTISODIY MADANIYATINING

TRANSFORMATSIYALASHUVI 83-87

<i>Norkulov Ubaydulla Umarovich</i>	
МАHALLADA JINOYATLARNI ERTA ANIQLASHDA JAMOATCHILIK NAZORATINI KUCHAYTIRISHNING IJTIMOIY-FALSAFIY MEXANIZMLARI	88-92
<i>Пулатов Шердор Нематёнович</i>	
ДОКТРИНА ЛЮБВИ АЛИШЕРА НАВАИ И МАХАТМЫ ГАНДИ	93-105
<i>Yusupov Murodali Sunnatovich</i>	
О'ZBEKİSTON QISHLOQ XO'JALIGIDA INNOVATSION TİZİMLARNI QO'LLASHNING IJTIMOIY-FALSAFIY MASALALARI	106-110
<i>Suleymanov Sarvar Sunatullayevich</i>	
О'ZBEKİSTONNING YANGI DAVRGA XOS BO'LGAN MA'NAVIY TEKNOLOGIYALARНИNG IJTIMOIY-FALSAFIY ASOSLARI	111-116
<i>Shernazarov Ravshan Avazovich</i>	
SIYOSIY E'TIQOD: UNING TİZIMI VA FUNKSIYASINING FALSAFIY TAHLILI	117-122
<i>Nasrullahov Ravshanxon Sirojxonovich</i>	
VATANPARVARLIKNI IJTIMOIY-MADANIY HODISA SIFATIDA AHAMIYATI.....	123-126
10.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI	
<i>Matkarimova Salomat Ko'ziyevna</i>	
ALISHER NAVOIY VA HAYDAR XORAZMIY: MUSHTARAKLIK VA O'ZIGA XOSLIK	127-133
<i>Tairova Maxfuza Abdusattorovna</i>	
INGLIZ VA O'ZBEK TILLARI Dagi MAMLAKATSHUNOSLIKKA DOIR RAMZIY VOSITALARNING TARJIMADA QAYTA IFODALANISHI	134-139
<i>Rahimova Maftuna</i>	
LISONIY BELGI VA ASSOTSIATSIYA	140-143
<i>Umaraliyeva Dildora Taxirjanovna</i>	
O'ZBEK LATIFALARI, ULARNING TASNIFI VA TO'PLASH BORASIDA OLIB BORILGAN TADQIQOTLAR	144-147
<i>Xursanov Nurislom Iskandarovich</i>	
O'ZBEK FRAZEOLOGIK BIRLIKALARINING PRAGMATIK TAHLILI	148-154
<i>Umarov Umidjon Akram o'g'li</i>	
RAMZ AXRETIPLARINING TASNIFLANISHI VA BADIY TAHLILI	155-159
<i>Облоқурова Шахло Асрор қизи</i>	
ЗАМОНАВИЙ ЖАҲОН АДАБИЁТИДА ТАОМ ДИСКУРСИ	160-164
<i>Nazarova Lola Maqsadilla qizi</i>	
KORPUS LINGVISTIKASI: BNC KORPUSINING FUNKSIONAL XUSUSIYATLARI	165-170
<i>Umarxonova Dilafruz Murotjonovna</i>	
"MARDLIK" VA "QO'RQOQLIK" KONSEPTLARINING AKSIOLINGVISTIK TAHLILI	171-175
<i>Yunusova Ganjina Rustamovna</i>	
NAZMDA YO'L XRONOTOPINING BADIY-ESTETIK XUSUSIYATLARI	176-180
<i>Мусаев Файзулло Оманович</i>	
АРАБ ДУНЁСИДА "МАСАЛ" ИЛМИНИНГ ВУЖУДГА КЕЛИШИ ВА РИВОЖИ	181-186

<i>Ubaydullayeva Dilafruz Fazliddinovna</i>	
INGLIZ VA O'ZBEK TILIDAGI "ANGER" VA "G'AZAB" ATAMALARINING ETIMOLOGIK VA LEKSIKOGRAFIK TAHLILI	187-192
<i>Narmuratov Zayniddin Radjabovich</i>	
FRAZEOLIK BIRLIKLER KOMPONENTLARI TAHLILI VA ULARNING STRUKTURAVIY MODELLARI	193-196
<i>Masharipova Nargiza Otaxonovna</i>	
TARIXIY-BADIY ASARLAR TARJIMASIDA DINIY VA TARIXIY SO'ZLAR TARJIMASI MUAMMOSI	197-201
<i>Икромова Нигина Ойбековна</i>	
ПСИХОЛИНГВИСТИЧЕСКИЕ ТРУДНОСТИ ПЕРЕВОДА ЗАГЛАВИЯ ЛИТЕРАТУРНОГО ПРОИЗВЕДЕНИЯ	202-207
<i>Najmuddinova Mehribul Najmuddin qizi</i>	
NEGATIVLIKNI IFODALOVCHI TEHNİKAGA OID TERMINLARNING QIYOSIY TADQIQI (INGLIZ VA O'ZBEK TILLARI MISOLIDA)	208-213
<i>Eshniyazova Maysara Beknazarovna</i>	
"NAZMUL JAVOHIR" ASARIDA G'OYAVIY BADIY POETIKA	214-221
12.00.00 – YURIDIK FANLAR	
<i>Сайдов Акрам Акмалович</i>	
ЯНГИ ЎЗБЕКИСТОН ЖАЗОНИ ИЖРО ЭТИШ СИЁСАТИ ҲАМДА УНИНГ НАЗАРИЙ АСОСЛАРИ	222-230
<i>Raimova Nargiza Doroyevna</i>	
TIJORAT MAXFIY MA'LUMOTLARINI HIMoya QILISH: INTELLEKTUAL MULK HUQUQI SOHASIDAGI QONUNCHILIKNI TAKOMILLASHTIRISH ISTIQBOLLARI	231-237
<i>Умурзақов Жасурбек Қосимжанович</i>	
КРИПТО-АКТИVLAR НОҚОНУНИЙ АЙЛАНМАСИ БИЛАН БОҒЛИҚ ҲУҚУҚБУЗАРЛИКЛАР УЧУН ЖАВОБГАРЛИКНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ	238-242
<i>Nurmamatova Noila Doniyorovna</i>	
KONSTITUTSIYAVIY SUDLOV ORGANI TOMONIDAN FUQAROLAR VA YURIDIK SHAXSLARNING SHIKOYATINI KO'RIB CHIQISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI	243-248
<i>Muxammadjonov Jasurbek Jaxongir o'g'li</i>	
FUQAROLARNING TADBIRKORLIK BILAN SHUG'ULLANISH HUQUQINING XALQARO VA MINTAQAVIY HUQUQIY KAFOLATLARI	249-260
<i>Адилбаев Бекбосын Абатбаевич</i>	
ФУҚАРОЛИК-ҲУҚУҚИЙ ВАКИЛЛИК ТУШУНЧАСИ, МОҲИЯТИ ВА ЎЗИГА ХОС ХУСУСИЯТЛАРИ	261-267
<i>Турсунбоев Сардор Муроджон ўғли</i>	
ПРОКУРАТУРА ОРГАНЛАРИ ТИЗИМИДА ТЕРГОВ ТУЗИЛМАЛАРИНИНГ ФАОЛИЯТИНИ ТАШКИЛИЙ-ҲУҚУҚИЙ АСОСЛАРИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ	268-275
<i>Mukutov Bobur</i>	
O'ZBEKİSTON RESPUBLİKASI VA GERMANIYA FEDERATİV RESPUBLİKASIDA TOVAR BELGİLARINI HUQUQIY MUHOFAZA QILISH MASALALARI	276-282
<i>Nabiev Firuz Xamidovich</i>	
INTELLEKTUAL MULK SOHASIDAGI XALQARO HUQUQIY NORMLARNI O'ZBEKİSTON	

RESPUBLIKASI QONUNCHILIGIGA IMPLEMENTATSIYA QILISHDA “MOSLASHUVCHANLIK” KONTSEPTSIYASINING O’RNI 283-289

Калимбетов Ерназар

ГРАЖДАНСКИЕ ПРАВА В СФЕРЕ ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСТВА: ПОНЯТИЕ, ВИДЫ И СОДЕРЖАНИЕ В КОНТЕКСТЕ АДМИНИСТРАТИВНО-ПРАВОВОЙ ЗАЩИТЫ 290-297

Ibrohimov Azimjon Abdumomin o’g’li

KORPORATSIYANI AMALDA BOSHQARUVCHI SHAXSLAR JAVOBGARLIGI 298-306

Ходжаева Ширин

ТЕОРЕТИКО-ПРАВОВОЙ АНАЛИЗ РИСКОВ, СВЯЗАННЫХ С ПРЕДДОГОВОРНЫМИ ОТНОШЕНИЯМИ 307-317

Маматкулов Камолиддин Галабаевич

ТАҚИҚЛАНГАН ЭКИНЛАРНИ ЕТИШТИРИШ БИЛАН БОҒЛИҚ ЖИНОЯТЛАРНИ ТЕРГОВ ҚИЛИШДА ИСБОТЛАНУВЧИ ҲОЛАТЛАР ВА УЛАРНИГ АҲАМИЯТИ 318-323

13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI

Nazarova Ra’no Sidiq qizi

HUQUQBUZARLIKKA MOYIL BO’LGAN BOLALARDA O’Z-O’ZINI NAZORAT QILISH KO’NIKMASINI SHAKLLANTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI 324-329

Fayzullayeva Gulchexra Sharipboevna

UMUMIY O’RTA TA’LIM MAKTAB O’QITUVCHISI KASB STANDARTINING MAZMUN TAHLILI 330-341

Hamidova Laylo Kamildjonovna

OLIY PEDAGOGIK TA’LIMDA ARALASH O’QITISH MODELLARIDAN FOYDALANISHNING AFZALLIKLARI 342-346

Ajiniyazova Sholpan Saparniyazovna, Uteniyazov Karimbay Kuanishbaevich

MAKTABDA KIMYOVIY MASALALARNI ECHISH BO’YICHA MASHG’ULOTLARNI TASHKIL ETISH SHAKILLARI 347-357

Rasulova Dilafruzxon Sharobiddin qizi

GLOBAL PEDAGOGIK SAVODXONLIKNI RIVOJLANTIRISHDA TALABALAR KOMPETENSIYASIGA METODIK YONDASHUVLAR 358-363

Kenjaboyev Sharifjon Shuxrat o’g’li

INDIVIDUAL-KABIY RIVOJLANISH – PEDAGOGLIK KASBI TARBIYASINING AJRALMAS QISMI SIFATIDA 364-369

Jalilov Umidjon Jahongirovich

OG’IR ATLETIKA MASHQLARINING AMALGA OSHIRISH USLUBIYATI 370-375

Najmiddinova Gulnora Najmiddin qizi

OLIY TA’LIM TIZIMIDA SUN’IY INTELLEKT TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH MEXANIZMLARI 376-381

Received: 30 June 2024

Accepted: 5 July 2024

Published: 15 July 2024

Article / Original Paper

POLITICAL BELIEF: A PHILOSOPHICAL ANALYSIS OF ITS SYSTEM AND FUNCTION

Shernazarov Ravshan Avazovich

Researcher of Navoi State Pedagogical Institute

Abstract. Political persuasions play an important role in the life of every individual and society, as they reflect our worldview, values, positions, and attitude towards the government and its policies. This article is devoted to the study of political persuasions and their mechanisms of functioning, uncovering the philosophical nature of political conviction. Through examples, the impact of political persuasions on a variety of factors, including social status, level of education, cultural, and religious traditions, is emphasized. The article also examines the philosophical justification of the role of political faith and its significant influence on an individual's participation in the political life of society.

Key words: value, development, political thinking, citizenship position, education, political system, social responsibility, function

SIYOSIY E'TIQOD: UNING TIZIMI VA FUNKSIYASINING FALSAFIY TAHLILI

Shernazarov Ravshan Avazovich

Navoiy davlat pedagogika instituti taddiqotchisi

Annotatsiya. Siyosiy e'tiqod har bir inson va jamiyat hayotida muhim ahamiyat kasb etib, u bizning dunyoqarashimizni, qadriyatlarimizni, hukumat va uning siyosatiga nisbatan pozitsiya va qarashlarimizni ifodalaydi. Mazkur maqola siyosiy e'tiqod va uning mexanizmini tadqiq etishga bag'ishlanib, unda siyosiy e'tiqod funksiyasining falsafiy mohiyati olib berilgan. Siyosiy e'tiqodning ko'plab omillarga, ijtimoiy mavqe, ta'lim, madaniy va diniy an'analarga bog'liqligi misollar asosida yoritib berilgan. Shuningdek, maqolada siyosiy e'tiqodning shaxs siyosiy jamiyatning siyosiy hayotidagi ishtirokidagi sezilarli ta'sir ko'rsatishidagi roli falsafiy jihatdan asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: qadriyat, taraqqiyot, siyosiy tafakkur, fuqarolik pozitsiyasi, tarbiya, siyosiy tizim, ijtimoiy mas'uliyat, funksiya

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V4I7Y2024N17>

Kirish. Siyosiy e'tiqod – shaxsning siyosat sohasida shakllanadigan asosiy fikr va qarashlar tizimidir. Siyosiy e'tiqod butun jamiyat hayotiga katta ta'sir ko'rsatib, uning falsafiy ahamiyatini insonning siyosiy sohadagi qarash va qadriyatlarini aniqlashga imkon beradi. Ular siyosiy faoliyat yo`nalishini belgilaydi, jamiyat axloqini tashkil qiladi. Siyosiy e'tiqod bu shaxsning siyosiy faoliyatimizga ta'sir qilib, insonlarni ko'pincha o'z huquq va manfaatlari uchun faol va kurashchiga aylanishiga, uning o'z davlatining siyosiy hayotida ishtirok etishi, saylov va referendumlarda qatnashishiga turki beradi. Siyosiy e'tiqod jamoatchilik fikrining shakllanishiga, jumladan, insonlarning ongiga va xatti-harakatlariga ta'sir qiladi. Ular odamlarni jamiyat manfaati yo'lida harakat qilishga undashi, ijtimoiy o'zgarishlar va

taraqqiyotni rag'batlantirishi mumkin. Bundan ko'riniib turibdiki, siyosiy e'tiqod moddiy ne'mat, narsa, predmet emas. Uni moddiy obyektlar kabi o'lchab, tortib ko'rib, sanab, hisoblab bo'lmaydi. Uning mazmuni va shakllanganligi darajasini laboratoriya sharoitlarida aniqlash, tajribalar o'tkazish orqali tavsiflash ham imkonsiz. Biroq bundan shaxsda siyosiy e'tiqodning mavjudligini, uning shakllanganligi me'yorini aniqlab bo'lmaydi, degan xulosa kelib chiqmaydi. Chunki, G.Gegel ta'kidlaganidek, mohiyat hodisada namoyon bo'ladi, har qanday hodisaning esa mohiyati bo'ladi [1].

Adabiyotlar tahlili. Siyosiy e'tiqod tushunchasi va uning falsafiy talqini ko'plab faylasuflar – F.Gegel, S.Kyerkegor, F.Nitshe, U.Diltey, A.Bergson, M.Sheler, S.L.Frank, V. S. Solov'yev, N. A. Berdyayev asarlarida chuqur tadqiq etilgan.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqot olib borish davomida analiz va sintez, retrospektiv, qiyosiy tahlil, umumlashtirish, dialektik va sinergetik kabi ilmiy bilish usullaridan foydalanilgan.

Tahlillar va natijalar. Siyosiy e'tiqod mohiyati qator hodisalarda namoyon bo'ladi. Bu hodisalarga qarab shaxs siyosiy e'tiqodining shakllanganlik darjasini va xususiyatlarini baholash mumkin. Quyidagi hodisalar bunga misol bo'la oladi:

Birinchidan, shaxsning siyosiy tafakkur holati. Bu siyosiy jarayonlarni tahlil qilish va tushunish qobiliyati, tanqidiy fikrlash, mushohada yuritish va asosli qarorlar qabul qilish imkoniyatlarini ko'rsatadi. Shuningdek, bu ko'rsatkich shaxsning siyosiy bilimi darajasini, ijtimoiy-siyosiy hayotda ishtirok etishga tayyorligini va faol fuqarolik pozitsiyasini ifodalaydi.

Ikkinchidan, shaxs siyosiy qarashlar tizimining shakllanganligi va xarakteri. Buni quyidagi ko'rsatkichlar orqali aniqlash mumkin:

a) Siyosat tarixi va nazariyalarini bilishi. Bu bilim siyosiy jarayonlar mohiyatini chuqurroq tushunishga yordam beradi.

b) Siyosiy pozitsiyasi. Bu shaxsning siyosiy masalalar muhokamasidagi ishtiroki va fikrlarida namoyon bo'ladi.

v) Ijtimoiy tarmoqlardagi repostlari. Bular shaxs siyosiy qarashlarining yorqin ifodasi hisoblanadi.

g) Ijtimoiy-siyosiy muammolarga munosabati. Insonning turli masalalar yuzasidan bildirgan fikrlari uning siyosiy e'tiqodi xarakterini ko'rsatadi.

Uchinchidan, shaxsning jamiyat ijtimoiy-siyosiy hayotida ishtirok etish istagi. Bu istak shaxs siyosiy faolligi va fuqarolik pozitsiyasining shakllanganligi ko'rsatkichidir. U shaxsning siyosiy jarayonlarga ta'sir ko'rsatishga, qarorlar qabul qilishda ishtirok etishga bo'lган irodasida namoyon bo'ladi. Bu istak ta'lim, tarbiya, ijtimoiy mavqe kabi omillar ta'sirida shakllanadi va siyosiy e'tiqodi barqaror shaxsdagina mavjud bo'ladi.

To'rtinchidan, shaxsning ijtimoiy-siyosiy faoliyat ko'rsatishdan maqsadi. Insonning siyosiy jarayonlarda ishtirok etish niyati turli maqsadlar bilan bog'liq bo'lishi mumkin. Masalan, turmush sharoitini yaxshilash, fuqarolar huquqlarini himoya qilish, ayrim guruhlarni qo'llab-quvvatlash, infratuzilmani rivojlantirish, jamiyat xavfsizligini ta'minlash kabi ezgu niyatlar bo'lishi mumkin. Yoki aksincha, tor siyosiy manfaatlarni yoqlash, shaxsiy mavqeni oshirish, moddiy imtiyozlar olish kabi g'arazli maqsadlar ham bo'lishi mumkin. Ana shu maqsadlar mazmuni shaxs siyosiy e'tiqodi xarakterini anglab olish imkonini beradi.

Beshinchidan, shaxsning jamiyat siyosiy tizimiga jalb etilganligi darjasini. Insonning ijtimoiy-siyosiy hayotda faol ishtiroki, muammolarni hal qilishga hissa qo'shishi uning bu

jarayondan manfaatdorligini va qat'iy siyosiy e'tiqodga ega ekanligini ko'rsatadi. Aynan shu siyosiy e'tiqod unga o'zini jamiyatning bir bo'lagi, uning rivoji uchun mas'ul deb his qilish imkonini beradi. Shaxsning ijtimoiy-siyosiy amaliyatga jalb etilganligi uning ijtimoiy mas'uliyati va yuksak fuqarolik ongini ham ifodalaydi. Ezgu siyosiy e'tiqodga tayangan holda faol ishtirok etayotgan kishilar ko'pincha yurt taraqqiyotiga hissa qo'shishga, vatandoshlari turmushini yaxshilashga intiladilar.

Xulosa qilib aytganda, siyosiy e'tiqod shaxsning siyosiy tafakkuri, qarashlari tizimi, jamiyat hayotida ishtirok etish istagi, siyosiy faoliyat maqsadlari va jamiyat siyosiy tizimiga jalb etilganlik darajasi kabi ko'rsatkichlar orqali namoyon bo'ladi. Bu ko'rsatkichlar shaxsning siyosiy ongi, bilimi, faolligi va mas'uliyatini aks ettiradi. Siyosiy e'tiqodi mustahkam shaxslar jamiyat taraqqiyotiga katta hissa qo'shishlari, ijtimoiy-siyosiy muammolarni hal etishda faol ishtirok etishlari mumkin. Shu bois, jamiyatda sog'lom siyosiy e'tiqodga ega fuqarolarni tarbiyalash muhim ahamiyat kasb etadi.

Shaxs siyosiy e'tiqodi qator personal va ijtimoiy funksiyalarni bajaradi. Uning personal funksiyalari quyidagilardan iborat:

birinchidan, bilish funksiyasi siyosiy e'tiqodning inson dunyoqarashiga ta'sirida namoyon bo'ladi. Shaxsning siyosiy e'tiqodi shakllanar ekan, uning siyosiy voqelikka doir muayyan tasavvurlari, qarashlari, nuqtai-nazari qaror topa boradi. Uning siyosiy e'tiqodi mustahkamlangani sayin dunyoqarashning siyosiy ong bilan bog'liq elementlari ham takomil topadi;

ikkinchidan, baholash funksiyasi siyosiy e'tiqodning yuz berayotgan voqealarni va voqelik faktlarini tushunishga ta'sirida namoyon bo'ladi. Shaxs jamiyat-ning siyosiy makonida ro'y berayotgan voqeа va jarayonlar mohiyatini o'z siyosiy e'tiqodidan kelib chiqqan holda baholaydi. Ularga shaxsiy munosa-bat ham siyosiy e'tiqod ta'sirida qaror topadi;

uchinchidan, muvofiqlashtirish funksiyasi siyosiy e'tiqodning shaxs siyosiy faoliyatiga ta'sirida namoyon bo'ladi. Shaxsning turfa siyosiy voqealardagi ishtirokini aynan siyosiy e'tiqod muvofiqlashtiradi hamda muayyan maqsadlarga yo'naltiradi.

Siyosiy e'tiqodning shakllanishi nafaqat shaxsning o'zi uchun, balki jamiyat uchun ham bag'oyat ahamiyatlidir. Chunki siyosiy e'tiqod personal funksiyalardan tashqari qator ijtimoiy funksiyalarni ham bajaradi. Xususan, birinchidan, siyosiy e'tiqod jamiyat a'zolarini muayyan siyosiy maqsadlarga safarbar qilish imkoniyatlarini kengaytiradi. Jamiyatda o'z siyosiy e'tiqodiga ega bo'lgan kishilar soni ko'paygani sayin siyosiy dasturlarni ro'yobga chiqarish imkonи ham osha boradi. Ikkinchidan, siyosiy e'tiqod jamiyat a'zolarining fuqarolik ongini yuksaltiruvchi omil vazifasini o'taydi. Siyosiy e'tiqod mustahkamlangani sayin kishilarning fuqarolik tuyg'ulari rivoj topadi, ijtimoiy taraqqiyot maqsadlari haqidagi qarashlari va tasavvurlari kengayadi. Uchinchidan, siyosiy e'tiqod ijtimoiy birdamlikni kuchaytiradi. Chunki e'tiqodsiz, biror bir siyosiy tasavvur va qarashlarga ega bo'limgan kishilarni birlashtirish mushkul, o'z e'tiqodiga ega bo'lgan kishilar esa, hamisha muayyan umumiy maxraj asosida kelisha oladilar. To'rtinchidan, siyosiy e'tiqod ijtimoiy munosabatlarni barqarorlashtirish imkonini beradi. O'z siyosiy e'tiqodiga ega bo'lgan shaxs boshqalarda ham muayyan siyosiy e'tiqod mavjudligini, bu hol rivojlangan demokratik jamiyat uchun odatiy hol ekanligini anglab yetadi va ijtimoiy munosabatlarga ana shu haqiqat nuqtai nazaridan kirishadi. Nihoyat, beshinchidan, siyosiy e'tiqod jamiyatning mafkuraviy xavfsizligini mustahkamlovchi manba

sanaladi: jamiyatda e'tiqodli kishilar ko'paygani sayin yot g'oyalarning kirib ke-lishi imkoniyatlari cheklana boradi.

Ko'riniib turibdiki, shaxs siyosi e'tiqodini shakllantirish masalasi, bir tomondan, shaxs ma'naviy ravnaqi, ikkinchi tomondan esa, jamiyat taqdiri va barqarorligi bilan bog'liq jiddiy masaladir. Qaysiki jamiyatda kishilar siyosi e'tiqodini mustahkamlash masalalariga e'tibor qaratilsa, o'sha jamiyatda kishilar siyosi ongi va faoliyati yuksala boradi, ijtimoiy birdamlik mustahkamlanadi. Lekin masalaning muhim bir tomonini alohida ta'kidlab o'tmoq darkor. Har qanday jamiyatda faqat insonparvar xarakterga ega bo'lgan tuyg'ular va kechinmalarga, bilimlar va g'oyalarga asoslangan siyosi e'tiqodgina yuqoridagi kabi pozitiv funksiyalarni bajara oladi. Masalan, liberalizm erkinlik, tenglik vaadolat g'oyalarini ulug'lanishi bilan tavsiflanadi [2]. Shu boisdan siyosi e'tiqodi liberalizm g'oyalarini asosida qaror topgan shaxs o'zining va o'zganing erkinligini oliy qadriyat deb biladi, qonun oldida barcha barobar bo'lishi kerak, deb hisoblaydi. Liberal siyosi e'tiqodga ega shaxs jamiyat barqarorligi darajasini, uning taraqqiy etish imkoniyatlarini erkinlik vaadolat g'oyalarining ildiz otganligi me'yori bilan o'lchaydi, siyosi makonida ro'y berayotgan voqe va jarayonlarga ham ana shu g'oyalar pozisiyasidan munosabatda bo'ladi. Jamiyatda liberal siyosi e'tiqodga moyil kishilar ko'paygani sayin erkinlik va ijtimoiy adolat normalari mustahkamlana boradi.

Demokratik g'oyalarga asoslangan siyosi e'tiqodni ham shunday tavsiflash mumkin. Demokratiya xalqni hokimiyatning asosiy manbai sifatida e'tirof etuvchi, hokimiyat institutlarini faqat saylovlari yo'li bilan shakllantirish lozimligini ta'kidlovchi, barcha ijtimoiy masalalar xalq manfaatlari nuqtai nazaridan hal qilinishi zarurligini uqdiruvchi, ko'pchilik fikri va manfaatlari ustuvor bo'lgan bir sharoitda ozchilik manfaatlarining himoyalanishi zarurligini ifodalovchi g'oyalardan tarkib topadi [3]. Demokratik siyosi e'tiqodga ega shaxs dunyoqarashida mazkur g'oyalar markaziy o'rinni egallaydi, u siyosi voqealar mohiyatini mazkur normalar bilan o'lchaydi, o'z siyosi faoliyatida ham ana shu normalarga tayanadi. Shuningdek, demokratik siyosi e'tiqod ijtimoiy birdamlikni mustahkamlashga, jamiyat a'zolarining fuqarolik ongini rivojlantirishga, ularni progressiv ijtimoiy-siyosiy dasturlar va mo'ljallar atrofida birlashtirishga xizmat qiladi.

G'ayriinsoniy tuyg'ular va kechinmalarga, bilimlar va g'oyalarga asoslangan siyosi e'tiqodlar shaxs ma'naviy kamolotiga, ijtimoiy taraqqiyotga xizmat qilmaydi. Aksincha, bunday e'tiqodga ega bo'lgan kishilar pirovardida ma'naviy tanazzulga yuz tutadilar, mazkur siyosi e'tiqodga moyil kishilarning ko'payishi esa jamiyatni yalpi inqiroz sari yetaklab keladi. Masalan, o'tgan asrning birinchi choragidan boshlab Yevropaning qator mamlakat-larida fashizm g'oyalari ildiz ota boshladi. Bu g'oyalar tor siyosi davralar manfaatlarini ustuvor deb bilar, ushbu manfaatlarning qondirilishi uchun ayrim shaxslarga nisbatan siyosi tazyiq o'tkazilishini ma'qullar, ijtimoiy muammolarni radikal tarzda hal qilinishi zarurligini yoqlar edi [4]. O'tgan asrning 30-yillarida millionlab kishilar ushbu g'oyalarni o'z siyosi e'tiqodlarining nazariy asosiga aylantirdilar. Bu e'tiqod ularning qariyb barchasini shaxsiy fojeaga olib kelganini izohlab o'tirishning hojati yo'q. Shuningdek, fashistik siyosi e'tiqodga ega bo'lgan kishilar bisyor bo'lgan jamiyatlarning o'zi ham vaqt o'tib ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy-mafkuraviy, ma'naviy-madaniy tanazzulga yuz tutdi.

G'ayriinsoniy xarakterdagи siyosi e'tiqodlar bugun ham barham topgani yo'q. Ayrim mamlakatlarda fashistik g'oyalarga asoslangan siyosi e'tiqod sohiblari hamon uchrab turibdi. Bunday kishilar turli ommaviy axborot vositalari orqali erkinlik vaadolatni emas, zulm va

adolatsizlikni, tinchlik va xotirjamlikni emas, urush va taloto'plarni, ijtimoiy hamjihatlik va millatlararo totuvlikni emas, ayirmachilik va millatchilikni targ'ib qilmoqdalar. Buning ustiga, yangi asrga kelib, ijtimoiy darvinizm, korporativizm, revanshizm, ekspansionizm, elitarizm, ekstremizm kabi g'ayriinsoniy g'oyalarning zamonaviy ko'rinishlariga asoslangan siyosiy e'tiqodlar ham ildiz ota boshladi. Jahonning biror mamlakatida bu e'tiqodlar shaxs ma'naviy kamolotiga yoxud yurt ijtimoiy taraqqiyotiga xizmat qilayotgani yo'q. G'ayriinsoniy siyosiy e'tiqodga ega bo'lgan kishilar nafaqat o'z yurtlaridagi ijtimoiy jarayonlardan uzilib qolmoqdalar, balki shaxsiy taqdirlari ham ayanchli yakun topmoqda.

Siyosiy e'tiqod ob'yektiv shart-sharoitlar hamda sub'yektiv omillarning inson dunyoqarashiga o'zaro uyg'unlikdagi ta'siri natijasida shakllanadi. Avvalo, shaxs siyosiy e'tiqodining qaror topishi jarayoni uni qurshab turgan ijtimoiy-madaniy muhitda kechadi. Inson siyosiy tuyg'u va kechinmalari, axborot va bilimlari birinchi navbatda uning turmushi kechayotgan mikromuhit, oiladagi vaziyat ta'siri ostida shakllana boshlaydi. Uning si-yosiy qarashlari xarakterida ijtimoiy maqomi, maishiy ahvoli ham muayyan iz qoldiradi. Shu sababdan turli mikromuhitda va oilaviy vaziyatda kamol topgan, turli ijtimoiy maqom va daromad miqdoriga ega bo'lgan kishilar turlicha siyosiy qarashlarga ega bo'ladilar. Shaxs siyosiy e'tiqodini shakllantiruvchi ob'yektiv shart-sharoitlar turkumida tarixiy va siyosiy voqealarning o'rni ayniqsa ahamiyatli. Milliy taraqqiyotning turli bosqichlarida sodir bo'lgan voqealar, ayni damdag'i siyosiy vaziyat shaxs siyosiy kechinmalariga, uning jamiyat siyosiy borlig'i va rivojlanishi qonuniyatlar to'g'risidagi bilimlarining hosil bo'lishiga jiddiy ta'sir ko'rsatadi. Nihoyat, shaxs siyosiy e'tiqodi jamiyatda ustuvor bo'lgan madaniy qadriyatlar ta'siri ostida kechadi. Ob'yektiv shart-sharoitlarning mazkur elementlari shaxs siyosiy dunyoqarashini, xususan uning siyosiy idroki va tasavvurini, siyosiy tafakkurini, siyosiy qadriyatlar xarakterini belgilab beradi.

Shaxs siyosiy e'tiqodini shakllantiruvchi sub'yektiv omillar esa har bir shaxsning individual xususiyatlari bilan bog'liq. Insonning siyosiy e'tiqodi uning shaxsiy tuyg'ulari va kechinmalari, ehtiroslari va kayfiyati, intellektual, axloqiy, estetik va huquqiy qadriyatlariga hamohang tarzda qaror topadi. Aytaylik, shaxs muayyan siyosiy pozitsiyani o'z kechinmalari va umidları bilan uyg'unligiga, qadriyatlariga mutanosibligiga qarab qabul qilishi va qo'llab-quvvatlashi mumkin. Bundan tashqari, siyosiy e'tiqod tarbiya, ta'lim, shaxsiy tajriba kabi omillar ta'sirida shakllana boradi. Shu boisdan tarbiya topgan inson siyosiy e'tiqodi tarbiyasi haminqadar bo'lgan kishinikidan, oliy ma'lumotli shaxs siyosiy e'tiqodi o'rta ma'lumotlinikidan, hayotiy tajribasi katta bo'lgan oqil siyosiy e'tiqodi tajribasiz g'o'rnikidan, kasbiy mahorati yuqori bo'lgan mutaxassis siyosiy e'tiqodi malakasiz mutaxassisnikidan tubdan farq qiladi.

Shuni ham ta'kidlab o'tish kerakki, yuqorida keltirilgan ob'yektiv shart-sharoitlar va sub'yektiv omillar shaxs siyosiy dunyoqarashiga alohida-alohida, navbatma-navbat, bosqichma-bosqich emas, uzlusiz va muttasil, uyg'un va o'zaro aloqadorlikda ta'sir ko'rsatadi. Inson siyosiy e'tiqodini avval oiladagi muhit va tarbiya, so'ngra ta'lim maskanlaridagi tahsil, keyinchalik mehnat jamoasi va jamoat tashkilotlaridagi siyosiy-mafkuraviy omillar ta'sirida shakllanuvchi fenomen sifatida tasavvur qilish masala-ning mohiyatini soddallashtirishdan o'zga narsa emas. Aslida ob'yektiv shart-sharoitlar va sub'yektiv omillar shaxs siyosiy dunyoqarashiga o'zaro bog'liq va o'zaro aloqador tarkibiy qismlar majmui sifatida uning butun umri mobaynida ta'sir qila boradi. Mazkur o'zaro aloqadorlik har bir shart-sharoit va omilning shaxs ongiga ta'sirini ayniqsa kuchaytiradi. Obyektiv shart-sharoitlar va subyektiv omillardagi

har qanday o'zgarish pirovardida uning shaxs siyosiy e'tiqodiga ta'siri xarakterini ham o'zgartiradi.

Xulosalar. Yuqoridagi mulohazalarimizga asoslanib xulosa qiladigan bo'lsak, siyosiy e'tiqod inson yaxlit e'tiqodining siyosiy aspektini ifodalovchi tushunchadir. Uning shakllanishi jarayoni hissiy (siyosiy tuyg'ular va kechinmalar) va aqliy (ma'-lumotlar va axborotlar) asoslardan turtki oladi. Ushbu asoslar ta'sirida yuzaga kelgan siyosiy bilimlar "tushunishishonish-amalda qo'llash" chig'irig'idan muvaffaqiyatli o'tganidagina shaxs siyosiy e'tiqodiga aylanadi. O'zining bilish, baholash va faoliyat komponentlariga ega bo'lgan siyosiy e'tiqod shaxs siyosiy tafakkuri holatida, siyosiy qarashlarining shakllanganligi va xarakterida, jamiyat ijtimoiy-siyosiy hayotida ishtirok etish istagida, ijtimoiy-siyosiy faoliyat ko'rsatishdan maqsadida, ijtimoiy-siyosiy amaliyotga jalg etilganligi darajasida namoyon bo'ladi hamda o'ta muhim personal va ijtimoiy funksiyalarini bajaradi. Turli obyektiv shart-sharoitlar va subyektiv omillar ta'sirida siyosiy e'tiqod yoki insonparvar, yoki g'ayriinsoniy xarakterda shakllanadi.

Адабиётлар/Литература/References:

1. Гегель Г.В.Ф. Наука логики. Книга вторая. Учение о сущности.- М.: Наука,1972.- Б.111.
2. Нурмеев Ю.Р. Идейные основы и базовые принципы либерализма./// Ученые записки Казанского университета. Серия Гуманитарные науки, 2008, №7.- 209-218-с.
3. Вакулова Т.В., Матросов М.А. К вопросу о демократии: определения и основные принципы./// Гуманитарная парадигма, 2017, №3.- 50-62-с.
4. Кикнадзе В.Г., Илиевский Н.В. Что такое фашизм, нацизм и неонацизм? Генезис фашизма, меха-низмы его влияния на массы, взаимосвязи с нацизмом и тоталитаризмом: теория, история и современность./// Наука. Общество. Оборона, 2023, №1.- 1-10-с.
5. Turdiyev, B. S. (2019). The role of national harmony in the strategy of spiritual renewal. Scientific Bulletin of Namangan State University, 1(6), 229-233.
6. Sobirovich, T. B. (2023). Basic Criteria for Building the Third Renaissance in Uzbekistan. Asian Journal of Applied Science and Technology (AJAST), 7(1), 149-157.

SCIENCEPROBLEMS.UZ

**ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ
ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ**

Nº 7 (4) – 2024

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

**Ижтимоий-гуманитар фанларнинг
долзарб муаммолари**” электрон
журнали 2020 йил 6 август куни 1368-
сонли гувоҳнома билан давлат
рўйхатига олинган.

Муассис: “SCIENCEPROBLEMS TEAM”
маъсулити чекланган жамияти

Таҳририят манзили:

100070. Тошкент шаҳри, Яккасарой
тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-
уй. Электрон манзил:

scienceproblems.uz@gmail.com

Боғланиш учун телефонлар:

(99) 602-09-84 (telegram).